

AMIR TEMUR DAVLATCHILIK G`OYALARI VA ZAMONAVIY MA`NAVIY QADRIYATLAR: O`ZARO TA`SIR VA UYG`UNLIK

M.Muratova - Sam DAQU

N.Muratova - Jomboy tumani 49-maktab o`qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada A.Temur davlatchilik g`oyalari va zamonaviy manaviy qadriyatlar haqida fikrlar bayon etilgan.

Аннотация: В статье описывается роль Амира Темура в истории узбекской государственности.

Annotation: This article discusses the role of Amir Temur in the history of Uzbek statehood.

Kalit so`zlar: Amir Temur, adolat, yurt tinchligi, mamlakat farovonligi, manaviy meros.

Ключевые слова: А.Темур, справедливость, мир страны процветание страны, духовное наследие.

A.Temur xalq orasidan chiqqan o`zbek o`g`loni bo`lib, o`zining buyuk daholigi bilan yangi davrning asoschisi sifatida maydonga chiqdi.

Mustaqilligimizga erishganimizdan keyin Amir Temur bobomiz nomi oqlanib, Samarqand, Shahrisabz, Toshkent viloyatlariga A.Temur ordeni berildi.

Amir Temur O`zbekiston tarixida ana shunday buyuk shaxsdir.

Amir Temur siyosiy kurash maydoniga kirib kelganda, o`lkamizda hali mo`g`ullar hukmronligi davom etayotgan edi.

Xalqimizning bir yarim asrlik zahmatlari, azobu uqubatlariga millatimizning dardiga darmon bo`lishni o`z oldiga maqsad qilib siyosiy kurash maydoniga kirib keladi. Jamiyatimiz ozodlik, xalaskor va yetakchiga muxtoj edi.

Chingiziylarning o`lkamizdagi hukmronligi 150 yil davom etgan bo`lsa-da, shu katta davr ichida na ijtimoiy-iqtisodiy hayotda, na ilmiy madaniyatda e`tiborga molik biron-bir tadbir amalga oshirilmagan. Tarixiy manbalarda yozilishicha, Amir Temur chiqargan dastlabki farmonlarda yo`llardagi xavfsizlik, pochta, qatnov vositalarini taminlash, qo`shinlar yurishi, janglar oqibatida xarob bo`lgan yerlarni obod etish, rabotlar (mehmonxonalar, to`xtash joylari), xonaqohlar qurish, kambag`al va miskinlar uchun xayrxonalar ochish haqida so`z ketgan. Shuningdek u sayyidlar, din peshvolari, qozilar, shayxlarga, ya`ni musulmon jamiyatida o`ziga xos mavqe va tasirga ega tabaqaga katta ikrom bilan qarashini bildiradi. Ilm fan rivoji uchun yo`l ochadi, talabalarga kattadan-katta stipendiyalar tayin etishni buyurgan. Bu amallari bilan Amir Temur bobomiz ko`p yillar mobaynida mamlakatimizdagi jamiyat rivojiga mutloq zid bo`lgan tizimga chek qo`yib, Amir Temur bobomiz o`z siyosatida inson qadri, jamiyat manfaatlari himoya qilinadigan, adolat bilan boshqariladigan yagona

markazlashgan davlat barpo eta oldi. O`zining o`ttiz besh yillik hukmronligi davomida markazlashgan davlatni “kuch adolatda” shiori bilan boshqardi va bu shior Amir Temur siyosatida bosh shior bo`lib qoldi. Amir Temur o`zbek davlatchiligi tarixida mamlakat siyosiy birligi va yaxlitligini mutloqa taminlay oldi. Shuning uchun ham o`zining davlati hududini kengaytirish va dahilsizligini taminlash maqsadida o`z davrida o`ttizta mustaqil davlatni, xozirgi zamondagi yigirma yettita mustaqil hududiga ega bo`lgan davlatni o`z hududiga qo`shib olgan. Shuning uchun ham Amir Temurning Oltin O`rda (bugungi Qozog`iston, SHarqiy Yevropaning bir qismi), Mo`g`uliston (Yettisuv, Qoshg`ar), Xuroson (Shimoliy Afg`oniston, Sharqiy Eron), Seyiston, Shimoliy Hindiston kabi mamlakatlarga harbiy yurishini, bir tomondan o`z hududini kengaytirishdan iborat desak, ikkinchi tomondan tarixiy-madaniy jihatlardan yaqin mintaqani birlashtirish niyatida amalga oshirilgan harakatlar bo`lgan desak har jihatdan to`g`ri bo`ladi. Amir Temur mingdan ortiq jangda qatnashgan bo`lib, bir marta loy jangida Amir Husayinning hiylasi bilan chekinishga majbur bo`lgan. Barcha janglarida g`alabaga erishgan bo`lib qadami yetgan joylarni obod qilgan, ko`plab bog`lar, masjid, madrasalar, binolar, yo`llar barpo etadi. Bu davrda Samarqand Buyuk Ipak Yo`lining markaziga aylangan, savdo va diplomatik aloqalar yo`lga qo`yilgan. Yo`ldagi havfsizlik taminlangan, Amir Temur bobomiz hukmronlik yillarida qaroqchilik, talonchilikka yo`l qo`ymagan, bu borada qonunlar qabul qilingan. Amir Temur saltanatidagi fuqarolarni 12 toifaga bo`ladi;

1. Sayyidlar ulomo, shayxlar, fozillar,
2. Aqlli tajribali kishilar, donishmand, olimlar,
3. Duogo`y kishilar,
4. Amirilar, sarxanglar, sipoxsolar,
5. Askar va xalq,
6. Maxfiy ishlar bilan shug`ullanuvchi tajribali kishilar,
7. Vazirlar, bosh kotiblar, devon munshiylari,
8. Hakimlar, tabiblar, munajjim va muhandislar, arxitektorlar,
9. Muhaddislar, payg`ambar va uning saxobalari haqida rivoyat qiluvchi
10. Mashoyix va so`pilar,
11. Hunar va san`at egalari,
12. Har o`lka mamlakatni yaxshi biladigan ro`yxatchi va musofirlar

Bundan bilishimiz mumkinki, har toifa vakillariga alohida hurmat, ehtirom ko`rsatilgan. “Shu o`rinda buyuk bobolarimizning ma`naviy olami xususida fikr yuritganda, Sohibqiron Amir Temur haqida alohida to`xtalishimiz tabiiydir. Chunki tengsiz azm-u shijoat, mardlik va donishmandlik ramzi bo`lgan bu mumtoz siymo buyuk saltanat barpo etib, davlatchilik borasida o`zidan ham amaliy, ham nazariy meros qoldirdi, ilm-u fan, madaniyat, bunyodkorlik, din va ma`naviyat rivojiga keng yo`l ochdi”. 3 Amir Temur bobomiz o`zining hayotiy tajribalaridan kelib chiqib, “Temur

tuzuklarini” yaratdi va bundagi qonun qoidalarga oʻzi ham amal qilgan. Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov “Yuksak maʼnaviyat-yengilmas kuch” kitobida shunday degan edi, “shaxsan men “Temur tuzuklarini” har gal oʻqir ekanman, xuddiki oʻzimga qandaydir ruhiy kuch quvvat topgandek boʻlaman. Oʻzish faoliyatimda bu kitobga takror-takror murojaat qilib, undagi hech qachon eskirmaydigan, inson maʼnaviyati uchun bugun ham oziq boʻladigan hikmatli fikrlarning qanchalik hayotiy ekaniga koʻp bor ishonch hosil qilganman. Masalan, “Tajribamdan koʻrilgankim, azmi qatʼiy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir. Bizning oʻz oldimizga qoʻygan maqsadimiz esa, bunday ulugʻ zotlarning hayot yoʻli va qoldirgan merosini toʻliq tasvirlash emas, balki ularning eng buyuk namoyondalari timsolida maʼrifat, ilm-u fan, madaniyat, din kabi sohalarning barchasini oʻzida uygʻunlashtirgan xalqimizning manaviy olami naqadar boy va rang-barang ekanini isbotlab berishdan iboratdir. Bunday noyob va bebaho boylikni har tomonlama chuqur oʻrganish, uning maʼno-mazmunini farzandlarimizga yetkazish masalasi barchamiz, birinchi galda, ziyolilarimiz, butun jamoatchiligimiz uchun ham qarz, ham farz boʻlishi shart deb hisoblayman”.⁴ Mustaqillik bergan buyuk neʼmat tufayli haqiqiy tariximizni oʻrganishimizga imkoniyat yaratildi. Amir Temur faoliyati haqida fikr yuritish ekanimiz, buyuk bobomizning el-yurt farovonligi, tinch-totuvligi uchun qilgan xizmatlari nihoyat darajada beqiyos ekanligini eʼtirof etish kerak. Amir Temur bobomiz avvalo buyuk davlat asoschisi. Amir Temur Hindiston hamda Xitoydan Qora dengizga qadar, Sirdaryo va Orol dengizidan Fors qoʻltigʻiga qadar gʻoyat kata hududni egallab, oʻlkalarda oʻz saltanatini oʻrnatib kuchli va mustahkam davlat tizimini, markaziy osiyoda koʻp millatli, qudratli davlatni tashkil etdi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Amir Temur va Temuriylar saltanatining siyosiy va huquqiy taʼlimoti butun jaxon tarixida alohida oʻrin tutadi, uning oʻrni va qiymati xozir ham beqiyosdir. Bugungi yosh avlodning huquqiy ongi va tafakkurini shakllantirishda, adolatli insonparvar demokratik jamiyatni barpo etishda Amir Temur bobomiz merosini oʻrganish ahamiyatlidir. Mustaqillikka erishganimizdan keyin milliy tariximizni, buyuk ajdodlarimiz haqidagi bor haqiqatni butun jaxonga roʻyi-rost koʻrsatib berish alohida ahamiyatga ega boʻlgan masaladir. Butun jaxon rivojlanishiga katta hissa qoʻshgan bobolarimiz maʼnaviy merosini nafaqat respublikamiz aholisi, balki jahon jamoatchiligiga tanishtirish katta ahamiyat kasb etadi. Bugungi yoshlarimizni Amir Temur maʼnaviy merosi bilan tanishtirish, uning tarixdagi oʻrnini ochib berish maqsadida mavjud adabiyotlar va manbalarni oʻrganishi uchun bizlarga mamlakatimiz bir qancha imkoniyatlar yaratib bermoqda. “Bizning tariximizda Amir Temurday ulugʻ siymo bor ekan, uning qoldirgan merosi, pandu oʻgitlari bugungi davrimizga hamohang ekan, oldimizda turgan muammolarni yechishda bizga qoʻl kelayotgan ekan, bizning bu merosni oʻrganmasdan, taʼriflamasdan, targʻibot qilmasdan haqqimiz yoʻq. Shuning uchun ham mana shu minbardan turib, butun Oʻzbekiston

xalqiga,qolaversa,butun jahon ahliga qarata “Amir Temur bizning faxrimiz,iftixorimiz, g`ururimiz!”-deb aytsam xato qilmagan bo`laman”.-degan edi birinchi prezidentimiz I.A.Karimov.

“Jahon menga bo`ysundi,men esa qismatga.

Bir qo`l siltash bilan qanchalab qo`rg`onlarni egalladim,

Bir oyoq qo`yish bilan qanchalab sipohni mag`lub etdim.

Ammo o`lim ot solgach,hech bir foydasi bo`lmadi,

Boqiylik Xudoga xosdir,mulk ham Xudo mulkidir.”¹

“Jahon tarixidagi buyuk siymolardan biri bo`lgan Amir Temur hayotligidayoq voqealar shohidlari tomonidan yozilgan asarlar tarixiy manba sifatida muhim ahamiyatga molikdir.Ulardan biri Nizomiddin Shomiyning “Zafarnomasidir”.Nizomiddin Shomiy Temur hayotini puxta bilgan,uning sarkardaligi va davlatchilik qobiliyati,diniy va dunyoviy fanlarga muhabbati haqida mustaqil tushunchalarga ega bo`lgan.Shu sababli u voqealarni haqqoniy yoritgan va Temur faoliyatiga xolisona baho berishga harakat qilgan.”²

Adabiyotlar:

1. Nizomiddin Shomiy “Zafarnoma” Toshkent “O`zbekiston”1996 yil 403-bet
2. Nizomiddin Shomiy “Zafarnoma” Toshkent “O`zbekiston”1996 yil 2-bet